ALOHIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARDA YER TUZISHNI TASHKIL ETISH VA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISH BO‘YICHA HUQUQIY ASOSLAR

Shukurova Nargiza Olimovna
Q.f.f.d (PhD), doktorant “O‘zdavyerloyiha” DILI
nargizashukurova076@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar yerlaridan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu toifadagi yerlarning huquqiy maqomi, ulardan foydalanishning belgilangan rejimlari hamda yer tuzish nuqtai nazaridan foydalanishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muhofaza etiladigan hududlar yerlaridan foydalanish tartiblarini belgilovchi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning amaliyotdagi qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Alohida muhofaza etiladigan hududlar yerlari, yer tuzish, huquqiy rejim, normativ-huquqiy asoslar, hududiy tashkil etish, yer fondi toifalari, yer kadastri, yer monitoringi, yer resurslaridan oqilona foydalanish, muhofaza rejimi.

Kirish. Hozirgi kunda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarish masalasi global ekologik muammolar, biologik xilma-xillikni saqlash hamda yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlash nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[1,2]. Ushbu hududlar yerlarining huquqiy rejimi qat’iy belgilangan bo‘lishiga qaramay, ularni hududiy tashkil etish, zonalashtirish va yer tuzish ishlarini olib borishda qator muammolar saqlanib qolmoqda[3]. Ayniqsa, muhofaza etiladigan hududlar yerlaridan foydalanish tartiblarini amaliyotda qo‘llash, yer resurslarini hisobga olish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda[2,4].

Shu bois mazkur toifadagi yerlarni yer tuzish nuqtai nazaridan ilmiy asosda o‘rganish va foydalanishni takomillashtirish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[1,5].

O‘zbekiston Respublikasida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan foydalanish “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonun” hamda sohaviy qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik hisoblanib, davlat muhofazasidadir hamda ulardan oqilona foydalanish zarur. Mazkur norma alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ularning yer resurslaridan foydalanish rejimini belgilashning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Muhofaza etiladigan hududlar yerlarining huquqiy maqomi va foydalanish tartibi sohaviy qonunchilikda yanada batafsil tartibga solingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 9-moddasida yer fondi toifalari tarkibida alohida muhofaza etiladigan hududlar yerlari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsa, 47-moddasida ushbu yerlarning huquqiy rejimi, ulardan foydalanishning cheklangan tartibi hamda xo‘jalik faoliyatini yuritish shartlari belgilangan[7]. Ushbu normalar muhofaza etiladigan hududlar yerlarining boshqa yer toifalaridan farqli ravishda maxsus foydalanish tartibiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur sohada asosiy maxsus hujjat sifatida “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida Qonun bilan ham tartibga solinadi. Ushbu qonun 1993-yil 7-mayda qabul qilingan bo‘lib, 2004-yil 3-dekabrda yangi tahrirda tasdiqlangan[8]. Mazkur qonun muhofaza etiladigan hududlarning huquqiy maqomini belgilash, ularni tashkil etish, muhofaza qilish hamda yer resurslaridan foydalanishning maxsus rejimini o‘rnatishga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Qonunning 3-moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasi, ularning maqsadi hamda asosiy toifalari belgilab berilgan bo‘lib, mazkur hududlar

noyob tabiiy majmualar, biologik xilma-xillik va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi alohida yer toifasi sifatida e’tirof etiladi. Ushbu norma muhofaza etiladigan hududlar yerlarining umumiy huquqiy maqomini aniqlab beradi hamda ularni boshqa yer fondi toifalaridan ajratib turuvchi asosiy belgilarni belgilaydi.

Qonunning 5-moddasida muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etish tartibi, ularning chegaralarini belgilash, yer ajratish hamda davlat tomonidan ro‘yxatga olish masalalari tartibga solinadi. Mazkur modda yer tuzish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hududlarni ilmiy asosda rejalashtirish, kartografik materiallar tayyorlash hamda funksional zonalashtirish ishlarini amalga oshirish zarurligini nazarda tutadi.

Shuningdek, 9-moddada davlat qo‘riqxonalari hududlarining foydalanish rejimi belgilangan bo‘lib, ushbu hududlarda xo‘jalik faoliyati deyarli to‘liq taqiqlanishi, yer resurslaridan faqat ilmiy va muhofaza maqsadlarida foydalanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. 10-moddada esa milliy bog‘lar yerlaridan foydalanish tartibi bayon etilib, ularda muhofaza qilish bilan bir qatorda rekreatsion va ekologik ma’rifiy faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berilishi nazarda tutiladi.

Qonunning 21-moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo‘jalik faoliyatini cheklash masalalari mustahkamlangan bo‘lib, mazkur norma ushbu yer toifasining ekologik ahamiyatini hisobga olgan holda ulardan foydalanishda qat’iy cheklovlar joriy etilishini belgilaydi[8]. Natijada muhofaza etiladigan hududlar yerlaridan foydalanish maxsus huquqiy rejim asosida amalga oshiriladi hamda yer tuzish jarayonlari ushbu cheklovlarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Umuman olganda, mazkur qonun alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan foydalanish, ularni hududiy tashkil etish va muhofaza qilishning kompleks huquqiy mexanizmini belgilab beradi hamda yer resurslaridan barqaror va oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi[7,8].

Bundan tashqari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo‘yicha Prezident hamda Hukumat qarorlari ham qabul qilingan. Jumladan “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Prezident qarori. Mazkur Prezident qarori O‘zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish bo‘yicha institutsional tizimni takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi[6]. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, kengaytirish va boshqarishning yangi mexanizmlari belgilangan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori ham qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini yuritishning huquqiy va texnik tartibini belgilaydi [7]. Qaror orqali alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarini hisobga olish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi, hududlarning geografik chegaralari va yer toifalari kadastrga kiritilishi, monitoring va ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ekologik va yer resurslari bilan bog‘liq ma’lumotlarni boshqarish nazarda tutiladi.

Xulosa: Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan foydalanish, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy normalari, yer to‘g‘risidagi sohaviy qonunchilik hamda maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan ko‘p bosqichli va o‘zaro uyg‘unlashgan huquqiy tizim asosida amalga oshiriladi. Mazkur tizim ushbu yer toifasining alohida ekologik, ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda ulardan foydalanishning maxsus rejimini belgilaydi hamda tabiiy majmualarni saqlash ustuvorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy baza muhofaza etiladigan hududlar yerlaridan oqilona va maqsadli foydalanish, ularni muhofaza qilish, hududiy tashkil etish, funksional zonalashtirish hamda yer tuzish ishlarini ilmiy asosda olib borish uchun zarur institutsional va tashkiliy mexanizmlarni shakllantiradi.

Natijada ushbu yer toifasidan foydalanish jarayonida ekologik barqarorlikni ta’minlash, biologik xilma-xillikni saqlash, yer resurslarining degradatsiyasini

oldini olish hamda hududlarni uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qiluvchi barqaror boshqaruv tizimini joriy etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishda yer tuzish faoliyatining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998-yil 30-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 1993-yil 7-may (yangi tahrirda 2004-yil 3-dekabr).
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yer tuzish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1998-yil 20-avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 1992-yil 9-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4850-son qarori “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 584-son qarori *“O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”*.Ataxanov A., Raxmonov R. Yer tuzish asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.
8. Xamidov M., Xolmurodov Sh. Yer resurslarini boshqarish va yer tuzish. - Toshkent, 2020.
9. FAO. Land Use Planning for Sustainable Development. - Rome, 2018.
10. UNEP. Protected Areas and Land Management Guidelines. - Nairobi, 2019.
11. Dudley N. Guidelines for Applying Protected Area Management Categories. - IUCN, 2013.
12. World Bank. Land Governance Assessment Framework. - Washington, 2014.